

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

KAZAKBAEV TUWELBAY KERIMBAEVICH

**KORPORATIV SHARTNOMANI FUQAROLIK-HUQUQIY
TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Kazakbaev Tuwelbay Kerimbaevich

Korporativ shartnomani fuqarolik-huquqiy tartibga solish..... 3

Казакбаев Тууелбай Керимбаевич

Гражданско-правовое регулирования корпоративного договора..... 23

Kazakbaev Tuuelbay Kerimbaevich

Civil law regulation of the corporate contract..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

KAZAKBAEV TUWELBAY KERIMBAEVICH

**KORPORATIV SHARTNOMANI FUQAROLIK-HUQUQIY
TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Yu737 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.sudyalaroliymaktabi.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imomov Nurillo Fayzullayevich,
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Borotov Mirodil Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Xolbaev Sobir Boratovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi huzuridagi PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 24-yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel./faks: (+998) 555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz)

Dissertatsiya (PhD) bilan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (34-25 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998 55) 501-01-89; e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9-yanvar kuni tarqatildi.

(2025-yil 9-yanvar 16-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.I. Nasriev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

O.B.Shamsiddinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

F.H. Otaxonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda xo‘jalik jamiyatlari ishtirokchilarining huquqlari amalga oshirilishini ta‘minlashda firma nazariyasi, tranzaksiya xarajatlari nazariyasi, shartnomalar nazariyasi, mulk huquqi nazariyasi amal qiladi. Bunda jamiyat ishtirokchilari tomonidan korporativ huquqlarni o‘zaro kelishib, korporativ shartnoma (shareholders’ agreements) tuzish orqali amalga oshirilishiga alohida urg‘u beriladi. Zero korporativ shartnoma tuzish orqali xo‘jalik jamiyati ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirishning munosib yo‘li tanlanadi va ular huquqlarini samarali himoya qilish mexanizmi yaratiladi. Chunki, xo‘jalik jamiyati ishtirokchilari korporativ shartnomada korporativ tanglik vaziyatida qanday harakat qilishni kelishib oladilar. Bu boradagi statistik ma‘lumotlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, 2023-yilgi statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, Belgiyada ommaviy kompaniyalarning 31 foizi, Italiyada 23 foizi, Fransiyada 18 foizi, Ispaniyada 13 foizi, Gretsiyada 6 foizi, Litvada 21 foizi, Buyuk Britaniyada 5 foizi, Braziliyada 25 foizi korporativ shartnomalar asosida shakllantirilgan. Bu, o‘z navbatida, korporativ munosabatlarni, ayniqsa xo‘jalik jamiyatlari ishtirokchilarining o‘z huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishni tartibga solishda korporativ shartnomaning nechog‘lik zarurligi hamda korporativ shartnomaning mohiyati va mazmunini to‘g‘ri shakllantirishning dolzarbligini anglatadi.

Jahonda korporativ shartnomani tushunish, mazmunini shakllantirish hamda talqin etishga nisbatan bir qator yondashuvlar amal qiladi. Bunday yondashuvlar asosan ikki guruhga ajratiladi va asosan qit‘a huquq tizimi va anglo-sakson huquq oilasiga ko‘ra farqlanadi. Qit‘a huquq tizimida korporativ shartnoma subektlari sifatida faqat jamiyat ishtirokchilari qatnashadi. Bunda ishtirokchilar uchun yangi huquq va majburiyatlar belgilanmaydi, aksincha, mavjud huquqlarni muayyan tarzda amalga oshirish hamda majburiyatlarni bajarish nazarda tutiladi. Anglo-sakson huquq oilasi korporativ shartnomada ishtirokchilar bilan birga korporatsiyalarning o‘zi qatnashishini, ushbu shartnoma korporatsiyaning ichki hujjati (bylaws) sifatida ustav qoidalarini o‘zgartirishi yoki bekor qilishi (“birlashtiruvchi moddalar” – articles of incorporation) mumkinligini belgilaydi. Shu sababli korporativ shartnomaning mazkur ikki modelidan qay biri O‘zbekistondagi korporativ munosabatlar uchun maqbul ekanligini tadqiq etish alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, korporativ boshqaruvdagi “boshi berk vaziyatlar”da (“deadlock resolution”) qo‘llanadigan “Texascha otishma” (texas shoot-out), “Gollandcha auksion” (dutch auction), “Rus ruletkasi” (russian roulette) kabi mexanizmlardan qay birini qo‘llashni korporativ shartnomada ifodalashning istiqbollarni o‘rganish va tegishli ilmiy prognozlarni ilgari surish ham o‘ziga xos dolzarblikka ega.

O‘zbekistonda korporativ shartnomalar bo‘yicha qonunchilikda aniq ko‘rsatma mavjud bo‘lmasa-da, qonunchilik ushbu shartnomaviy konstruksiyadan foydalanishga imkon beradi. Xususan, Fuqarolik kodeksining 8-, 354-moddalarida taraflar qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomalar tuzishlari mumkinligi belgilangan. Xo‘jalik jamiyatlaridagi korporativ boshqaruv jarayonlarida,

aksiyador ham ishtirokchilarining o‘zaro kelishgan holda o‘z huquqlarini amalga oshirishga haqli ekanligi borasida ham taqiq mavjud emasligidan kelib chiqib korporativ shartnomani amalda qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi”da ham “korporativ hujjat kuchiga ega va uchinchi shaxslar uchun majburiy bo‘lgan “korporativ shartnoma”ni joriy qilish” nazarda tutilgan bo‘lib, korporativ shartnomaga oid qonunchilik normalarini ishlab chiqish va uni FKning yangi tahririda ifodalash zaruratini ilmiy-amaliy jihatdan isbotlash muhim ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi, 2001-yil 6-dekabrda qabul qilingan “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi, 2014-yil 6-mayda qabul qilingan “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-son “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi, “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrda qabul qilingan “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-415-son qarori va mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Tadqiqot mavzusining o‘rganilganlik darajasi. Faoliyatni birgalikda amalga oshirish borasidagi shartnomaviy konstruksiyalar, sherikchilikka asoslangan shartnomaviy faoliyat masalalari sivilistikada uzoq vaqtlardan buyon keng tadqiq etilgan. Sherikchilikning yoki shirkatlarning shartnomalarga asosan tashkil etilishi I.B.Zokirov, D.M.Karaxodjayeva, O.Okyulov, H.R.Rahmonqulov, B.R.Topildiyev, N.F.Imomov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida keltirib o‘tilgan.

O‘zbekistonda korporativ shartnomaning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, korporativ boshqaruv, xo‘jalik jamiyati ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish masalalari bir qator huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, S.S.Gulyamov, M.N.Saidov, V.R.Topildiyev, U.P.Xolmirzayev, J.I.Yuldashev larning asarlarida xo‘jalik jamiyatlari ishtirokchilariga oid masalalar muayyan darajada o‘rganilgan.

Xorijiy mamlakatlar huquqshunos olimlaridan korporativ shartnomaning mohiyati va ahamiyati G.Chemla, M.Habib, J.Jones, A.Ljungqvist, C.L.Ryan, G.Stedman, K.Thomas, K. Reece va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

MDH davlatlaridan R.I.Axmadullin, T.A.Gribkova, V.S.Gurev, N.S.Karjavina, O.R.Kibenko, M.A.Nikolenko, M.M.Sigidin, S.P.Stepkin, M.V.Trubina, M.S.Varyushin¹ va boshqa olimlarning asarlarida korporativ shartnomaning bir qator masalalari tahlil qilingan. Biroq mazkur dissertatsiya mavzusi doirasida O‘zbekistonda kompleks tadqiq qilingan yaxlit ilmiy tadqiqot ishi mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Korporativ shartnomani fuqarolik-huquqiy tartibga solish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Dissertatsiyaning maqsadi korporativ shartnomani fuqarolik-huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy va amaliy muammolarni aniqlash hamda qonunchilikni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korporativ shartnoma tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

korporativ shartnomaning huquqiy tabiati va o‘rnini belgilash masalalarini aniqlash va hal qilish;

korporativ shartnomani korporativ munosabatlarni huquqiy tartibga solish manbai sifatida tavsiflash;

korporativ shartnoma tuzish shartlari va shaklini tahlil qilish;

korporativ shartnoma predmetini va mazmunini aniqlash muammolarining yechimlarini topish;

korporativ shartnoma taraflari va ularning huquq va majburiyatlarini tahlil qilish

korporativ shartnoma shartlarini bajarmaganlik yuzasidan taraflarning javobgarligi muammolarini tadqiq qilish;

korporativ shartnoma taraflarining huquqlarini himoya qilishni takomillashtirishga oid takliflarni ishlab chiqish;

korporativ shartnomani bekor qilishning ilmiy-nazariy tahliliga asoslangan tegishli tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti korporativ shartnomani fuqarolik-huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini korporativ shartnoma institutini tadqiq qilish, uning ilmiy-nazariy, qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo‘llash amaliyoti bilan bog‘liq huquqiy muammolar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy (tahlil, sintez, deduksiya va induksiya), statistik kabi usullar qo‘llangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

¹ Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan

kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar sonini hisoblash jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan mustaqil a'zolar soniga alohida ko'paytirish yo'li bilan amalga oshirilishi asoslantirilgan;

yirik bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplashda aksiyadorlik jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmasa direktor subsidiar javobgar bo'lishi asoslangan;

minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarini shakllantirish kuzatuv kengashi uchun belgilangan tartib va muddatlarda amalga oshirilishi asoslantirilgan;

investitsiya faoliyatining ishtirokchisi investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish yuzasidan shartnomalar tuzishga haqli ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

korporativ shartnoma rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng qo'llanishi va ishtirokchi (aksiyador)lar huquqlarini amalga oshirishga oid munosabatlarni samarali tartibga solish vositasi ekanligidan kelib chiqib, FK, MChJ to'g'risidagi qonunga korporativ shartnomaga oid normalarni kiritish taklifi asoslab berilgan;

korporativ shartnomaga nisbatan majburiyat-huquqiy qoidalar va shartnoma erkinligi prinsipi cheklanishi, ushbu shartnomaga nisbatan korporativ-huquqiy qoidalar tatbiq etilishi ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan;

korporativ munosabatlarda, xususan, aksiyadorlar huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda minoritarlar uchun muayyan imkoniyat yaratishda korporativ shartnoma eng qulay mexanizm ekanligi, shu sababli qonunchilikda korporativ shartnomaga oid normalarni shakllantirishda hamda milliy korporativ huquq doktrinasini shakllantirishda mazkur holatni hisobga olish zarurligi asoslantirilgan;

xo'jalik jamiyatlarida korporativ shartnomani tuzishga nisbatan qonunchilikda aniq shartlar, mezonlar va talablar belgilanishi, bunda ishtirokchilar yoki aksiyadorlar soni, ularning ulushi miqdori inobatga olinishi zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo'llangan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olingani, huquqshunoslar (sudyalar) o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilganligi, xorijiy tajriba va milliy qonun hujjatlarining o'zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, yetakchi milliy nashrlarda e'lon qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ilmiy tadqiqot faoliyatida, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida foydalanishda, tegishli qonunchilik normalarini sharhlashda ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korporativ shartnomani fuqarolik-huquqiy tartibga solish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi va joriy etildi:

kumulyativ ovoz berishda ovozlar jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo'lgan mustaqil a'zolar soniga alohida ko'paytirilishi yo'li bilan hisoblanishiga oid qoida O'zbekiston Respublikasining "Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2023-yil 18-yanvardagi O'RQ-814-sonli Qonunining 1-moddasi bilan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 223-I-sonli Qonunining 76-moddasi to'qqizinchi qismi kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlarni tayyorlashda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasining 2023-yil 7-sentyabrdagi 04/1-13-25-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashiga kumulyativ ovoz berish tartibini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

yirik bitim tuzish tartibi buzilishi oqibatida aksiyadorlik jamiyatga yetkazilgan zarar uchun direktor subsidiar javobgar bo'lishga oid taklif O'zbekiston Respublikasining "Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2023-yil 18-yanvardagi O'RQ-814-sonli Qonunining 1-moddasi bilan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 223-I-sonli Qonunining 81-moddasi yettinchi qismi kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlarni tayyorlashda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasining 2023-yil 7-sentyabrdagi 04/1-13-25-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif aksiyadorlik jamiyat direktorining yirik bitim yuzasidan javobgarligini aniq belgilash orqalari kreditorlar manfaatini ta'minlashga huquqiy asos yaratgan;

minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibi kuzatuv kengashi uchun belgilangan tartib va muddatlarda shakllantirilishi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasining "Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2023-yil 18-yanvardagi O'RQ-814-sonli Qonunining 1-moddasi bilan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 223-I-sonli Qonunining 82-moddasi ikkinchi qismiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasining 2023-yil 7-sentyabrdagi 04/1-13-25-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif minoritar aksiyadorlar qo'mitasini shakllantirish tartibini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

investitsiya faoliyatining ishtirokchisi investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish yuzasidan shartnomalar tuzishga haqli ekanligiga oid taklifdan Qoraqalpog'iston Respublikasining 2021-yil 10-iyuldagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi №150/XX Qonunining 12-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 29-fevraldagi №03-03/149-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif investitsiya

faoliyatining ishtirokchisi investorlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning ko'lamini kengaytirishga zamin yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan OAK nashrlarida 9 ta maqola (6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 151 betni (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashqari) tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish (dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Korporativ shartnoma tushunchasi va shartnomalar tizimida tutgan o'rnini aniqlash muammolari”** deb nomlangan birinchi bobida korporativ shartnoma tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari, korporativ shartnomaning huquqiy tabiati va o'rnini belgilash masalalari, korporativ shartnomaning korporativ munosabatlarni huquqiy tartibga solish manbayi sifatidagi mohiyati ochib berilgan.

Korporativ qonunchilik bugungi kunda doimiy rivojlanib bormoqda, uning dinamikasi shunchalik yuqoriki, ba'zida ijtimoiy munosabatlar qonun chiqaruvchi tomonidan belgilanadigan o'zgarishlarga moslashishga ulgurmaydi. Shu munosabat bilan jamiyat oldida hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator nazariy va amaliy masalalar turibdi. Biroq yuqorida aytib o'tilgan muammolarni hal qilish, birinchi navbatda, korporativ munosabatlar obyektini, korporativ huquqlar nima va ularning huquqiy tabiati qanday ekanligini to'liq tushunishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida, milliy qonunchilik hamda huquqni qo'llash amaliyotini boyitadigan, huquqiy tartibga solish sohasining bo'shliqlarini to'ldiradigan yangi huquqiy normalar va institutlarni kiritishni talab etadi. Mulkiy va tashkiliy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish sohasidagi dolzarb, ayni paytda qonunchilik, huquqni qo'llash va sivilistik doktrina nuqtayi nazaridan zarur bo'lgan institutlardan biri, bu – korporativ shartnoma hisoblanadi.

Dissertatsiyada korporativ shartnomaga oid bir qator huquqshunos olimlar (I.V. Lukach, N.S. Glus, S.V. Nesinova, V.S. Voronko, T.S. Chebykina, V.A.

Vasileva, O.R. Kibenko, Y.M. Jornokuy, I.V. Spasibo-Fateyeva, A.N. Vinnik, M.M. Sigidin, V.V. Vasileva)ning fikrlari o‘rganilib, korporativ shartnoma umumiy tushuncha bo‘lib, uning huquqiy konstruksiyasi orqali korporativ turdagi yuridik shaxs ishtirokchilarining korporativ huquqlarini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin, shu munosabat bilan korporativ shartnoma predmeti uni tuzish uchun muhim ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga kelindi. Muallifning fikricha, korporativ shartnomaning predmetini korporativ turdagi yuridik shaxs ishtirokchilarining shartnoma taraflarining kelishuvi bilan belgilanadigan, qonunchilik va ta‘sis hujjatlariga zid bo‘lmagan tarzda amalga oshiriladigan korporativ huquqlar tashkil qiladi.

Tadqiqot ishida keltirilishicha, korporatsiya ishtirokchilari tomonidan “korporativ shartnoma” tuzilishi ko‘plab xorijiy davlatlar huquqida e‘tirof etilgan. Bunda xorijiy tartibotlarda ushbu shartnomaga nisbatan turlicha konseptual yondashuvlar taqdim etilgan. Masalan, Britaniya huquqi aksiyador (ishtirokchi)lar kontraktining predmeti nimalar bo‘lishini yetarli darajada aniq ifodalamaydi. Fransiya, Germaniya qonunchiligi taraflarning tanlash erkinligini cheklaydi.

Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillar asosida korporativ shartnomaning o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati ochib berildi va korporativ shartnomaning mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi.

Muallifning yozishicha, eng munozarali masalalardan biri, bu – korporativ shartnomani fuqarolik-huquqiy bitimlar jumlasiga mansubligini aniqlash masalasidir. Bunda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlardan biri korporativ shartnoma fuqarolik-huquqiy tusga ega deb hisoblansa, unda ushbu shartnomaning fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar tizimidagi tutgan o‘rnini aniqlash hisoblanadi.

Ishda korporativ shartnomaning mohiyati va shartnomalar tizimida tutgan o‘rniga oid ko‘plab olimlar (V.K.Andreyev, V.A.Xoxlov, Y.V.Artamkina, Y.V.Zubova)ning fikrlari tahlil qilinib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqaruv munosabatlari korporativ huquqning predmetini tashkil qilishi asoslantiriladi. Korporativ shartnoma boshqaruv va mulkchilikni bir-biridan ajratilganligini, har bir boshqaruv organi o‘z vakolatiga ega ekanligini va shartnoma shartlarini halollik bilan amalga oshirishini belgilaydi.

Muallifning fikricha, tadbirkorlik faoliyatida, shu jumladan, korporativ munosabatlarda, korporativ shartnomalarda, ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilishda “chaqirib olinmaydigan ishonchnoma”ning o‘rni muhimdir. Shu sababli “chaqirib olinmaydigan ishonchnoma”ga oid qoidalarni FKning 142¹-moddasi sifatida kiritish maqsadga muvofiqdir.

Dissertant tomonidan korporativ munosabatlardagi “Deadlock” (boshi berk vaziyat), “Rus ruletkasi”, “Texas otishuvi”, “Gollandcha auksion”da korporativ shartnomaning o‘rni tadqiq qilinib, korporativ shartnoma korporativ nizolarning oldini olish va hal qilishda muhim vosita bo‘lishini asoslantirishga harakat qiladi. Shuningdek, turli xorijiy davlatlar (Germaniya, Avstriya, Angliya, AQSh)ning korporativ shartnomaga oid doktrinalari dissertatsiyada tadqiq etiladi va shu asosda korporativ shartnomaning ifodalanishi hamda qo‘llanishiga oid muayyan tavsiyalar shakllantiriladi.

Tadqiqot ishidagi tahlillar natijasida FKga “korporativ shartnoma” nomli 358¹-modda, AJ to‘g‘risidagi qonunga “aksiyadorlik bitimi” nomli 25¹-modda, MChJ to‘g‘risidagi qonunga “korporativ shartnoma” nomli 9¹-moddani kiritish taklifi asoslantirildi.

Korporativ shartnomaning huquqiy mohiyatini o‘rganishda uning fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimidagi o‘rnini aniqlash juda muhimdir. Korporativ shartnoma yuridik adabiyotlarda yangi va yetarli darajada o‘rganilmagan hodisa bo‘lishiga va amaldagi ichki qonunchilikda uning tuzilishining huquqiy tartibga solinmaganiga qaramay, biz bugungi kunda fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimida korporativ shartnomaning mustaqil o‘rni haqida gapirishimiz mumkin.

Korporativ shartnomaning barcha shartlarini bajarish jarayonida uning tomonlari birgalikda harakat qilishadi, shu bilan xizmat shartnomalaridan farqli o‘laroq, o‘zlarining korporativ huquqlarini boshqarish faoliyatini muvofiqlashtiradilar, bunda majburiyatning kerakli natijasi, qoida tariqasida, faqat yetkazib berishdan keyin amalga oshiriladi. Bundan tashqari, xizmat ko‘rsatuvchi va iste‘molchi o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar “qarzdor – kreditor” xarakteriga ega, korporativ shartnoma taraflari o‘rtasidagi munosabatlar esa rasmiy sheriklik xarakteriga egadir.

“Korporativ shartnomani tuzish asoslari va mazmunining ilmiy-amaliy tahlili” deb nomlangan ishning ikkinchi bobida korporativ shartnoma tuzish shartlari va shakliga oid tahlil, korporativ shartnoma predmetini va mazmunini aniqlash muammolari, korporativ shartnoma taraflari va ularning huquq va majburiyatlari tadqiq etilgan.

Tadqiqot ishida keltirilishicha, korporativ shartnomaning huquqiy konstruksiyasi, ya‘ni uni tuzish paytdagi shartnoma taraflarining asosiy huquq va majburiyatlari, korporativ shartnoma subyektlari doirasi va ushbu shartnomaning mohiyati to‘g‘risida turlicha qarashlar mavjud. Boshqa fuqarolik-huquqiy shartnomalarga xos bo‘lmagan muhim korporativ komponent tufayli korporativ shartnomaning o‘ziga xos xususiyatlarini inkor etib bo‘lmaydi. Biroq korporativ shartnomani faqat shu asosda huquq manbayi sifatida qabul qilish adolatli emas. Korporativ shartnoma shaxsiy huquqiy tartibga solishga qaratilgan hujjat bo‘lib, faqat ushbu shartnoma ishtirokchilari bo‘lgan kompaniya ishtirokchilarining manfaatlarini qondirishga qaratilgan.

Dissertatsiyada korporativ shartnomaning o‘rniga oid qarashlar tahlil qilinadi. Xususan, korporativ shartnomaning aralash shartnoma, qo‘shilish shartnomasi, birgalikdagi faoliyat yuritish shartnomasi, nomlanmagan shartnomalar bilan o‘zaro nisbati o‘rganilib, ushbu shartnoma o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra, birgalikda faoliyat shartnomalarining bir turi degan xulosaga kelinadi.

Korporativ shartnomaning predmeti tomonlarning korporativ huquqlarini amalga oshirish shartlari va tartibi to‘g‘risidagi majburiyatlari, korporativ munosabatlarning mohiyatidan kelib chiqadigan har qanday harakatlarni amalga oshirishdan voz kechish uchun passiv turdagi majburiyatlar va (yoki) aksiyalar bilan tasdiqlangan korporativ huquqlarini amalga oshirish bilan bog‘liq faol majburiyatlar va aksiyalarga bo‘lgan huquqlaridir.

Korporativ shartnomalarning muhim shartlari sifatida korporativ huquqda drag along va tag along tan olingan. Drag along qoidasiga muvofiq, agar aksariyat aksiyadorlar barcha aksiyalarini shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida uchinchi shaxsga topshirishni istasa, bu aksiyador boshqa aksiyadorlardan (aksiyadorlik shartnomasi ishtirokchilaridan) ham o'z aksiyalarini xuddi shunday shartlarda aynan shu uchinchi shaxsga o'tkazishni talab qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tag along rights qoidasiga muvofiq, korporativ huquqda o'z aksiyalarini sotishni rejalashtirgan aksiyadorlar boshqa aksiyadorlarga o'z aksiyalarini yoki ularning mutanosib qismini sotuvchi aksiyadorga, bir xil xaridorga va bir xil shartlarda sotish imkoniyati to'g'risida xabar berishlari shart.

Milliy qonunchilikka binoan drag along rights va tag along rights qoidalarini qo'llash imkoniyati qiyin ko'rinadi. Korporativ shartnomaning majburiyat munosabatlari faqat uning taraflari o'rtasida yuzaga keladi. FKga va nisbiy huquqiy munosabatlar nazariyasiga muvofiq shartnomada ishtirok etmaydigan tarafga biror narsa qilish yoki qilmaslik majburiyatini yuklash mumkin emas. Shu bilan birga, korporativ shartnomadagi huquq va majburiyatlar shunday belgilanishi mumkinki, o'z aksiyalarini (ulushini) sotgan shaxs aksiyalarni (ulushni) sotib oluvchi bilan minoritar aksiyadorlarning bitimlarini tuzishga ko'maklashishi yoki o'z aksiyalarini (ulushini) sotishda minoritar aksiyadorlar aksiyalari (ulushlarini)ni sotib olishi lozim bo'ladi. Shu bilan birga, demand rights (aksiyani sotishni talab qilish huquqi) va piggy-back rights (co-sale agreements, barcha aksiyalarni sotib olishni talab qilish huquqi)ni korporativ shartnomalarda ifodalash ham muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyada qayd etilishicha, ilmiy munozaralar FK va maxsus qonunlarda korporativ shartnomadan kelib chiqadigan munosabatlarga nisbatan tadbirkorlik majburiyatlari to'g'risidagi normalarni qo'llash bo'yicha faqat fragmentar ma'lumotlar mavjudligi sababli o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, ammo barcha munosabatlarga nisbatan tadbirkorlik majburiyatlari to'g'risidagi normalarni qo'llashning imkoniyati to'g'risidagi umumiy yondashuv qonunchilikda aniq ifodasini topmagan.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **“Korporativ shartnomani buzganlik uchun javobgarlik va shartnomani bekor qilish muammolari”**ga bag'ishlanadi. Mazkur bobda korporativ shartnoma shartlarini bajarmaganlik yuzasidan taraflarning javobgarligi muammolari tadqiq qilinadi, korporativ shartnoma taraflarining huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish istiqbollari ko'rib chiqiladi, korporativ shartnomani bekor qilishning ilmiy-nazariy tahlili amalga oshiriladi.

Korporativ huquqlarga rioya etilishini ta'minlash muammolari olimlar va amaliyotchilarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Bu holat juda mantiqiy ko'rinadi, chunki korporativ huquqlarni himoya qilish qulay investitsiya muhitining kalitidir. Shuni hisobga olib, ularning buzilishiga qarshi kurashish choralari takomillashtirish zarurati mavjud. Bunday choralardan biri, bizning fikrimizcha, korporativ javobgarlikdir. Ammo, afsuski, milliy qonunchilikda korporativ javobgarlik instituti amal qilishi uchun hali tegishli huquqiy ta'minot mavjud emas. Ishtirokchilarning korporativ huquqlariga mos keladigan korporativ

majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun korporativ javobgarlikni huquqiy tartibga solish bo'yicha amaldagi qonunchilikning qoidalarini tizimli tahlil qilish ushbu sohada ham ilmiy, ham huquqni muhofaza qilishda muayyan muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqib, muallif korporativ javobgarlikni qonun hujjatlarida, shartnomada va jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilangan ishtirokchilarining korporativ huquqlariga mos keladigan korporativ majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun sanksiyalarni qo'llashdan iborat bo'lgan huquqiy javobgarlik turi sifatida tushunishni taklif qiladi. Bunday holatlarda korporativ shartnoma ishtirokchilarining buzilgan huquqlarini tiklashning muqobil mexanizmi, muallifning fikricha, birinchi navbatda, kompensatsiya to'lash bo'lishi lozim. Qolaversa, korporativ shartnoma bo'yicha javobgarlikni tahlil etish asnosida dissertant "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunini "korporativ javobgarlik" nomli modda bilan to'ldirishni taklif qiladi.

Tadqiqot ishida korporativ huquqlarini himoya qilishning quyidagi usullari tahlil qilinadi: buzilgan va nizoli subyektiv huquqlarni tiklash, jamiyat aksiyadorlari (ishtirokchilari) aksiyadorga jamiyatning boshqa aksiyadori tomonidan sotilgan aksiyalarga nisbatan imtiyozli huquqi mavjudligi sababli umumiy yig'ilish yoki jamiyat kuzatuv kengashining tegishli qarorini haqiqiy emas deb topish, subyektiv huquqlari buzilishiga nisbatan tahdidlarni bartaraf etish va boshqalar.

Korporativ huquqlarni himoya qilishning mavjud usullarini hisobga olgan holda, ularni shartli ravishda himoya qilish shakliga bog'liq bo'lmagan, lekin korporativ huquqlarning mazmuni va boshqaruv vakolatiga bog'liq bo'lgan to'g'ridan to'g'ri qonunchilik konsolidatsiyasiga ega bo'lgan profilaktika usullariga hamda huquq va majburiyatlarni majburiy amalga oshirish usullariga bo'lish mumkin. Ushbu himoya usullari ifodalanishining quyidagi shakllarini keltirish mumkin: 1) shartnoma tarafi tomonidan belgilangan shartnomalarni buzgan holda ovoz bergan taqdirda jamiyat organining qarorini bekor qilish; 2) shartnoma tarafining shartnomada ko'rsatilgan tartibda yig'ilishda ovoz berish majburiyatini bajarishga majburlash; 3) shartnoma tarafini muayyan holatlar yuz berganida ulush (aksiya)ni sotib olish yoki sotishga majburlash.

Korporativ shartnomaning bekor bo'lishi shartnoma taraflari ishtirokchisi bo'lgan jamiyatning tugatilishi, sherikning jamiyat ishtirokchiligidan chiqishi, shartnoma shartlarini bajarmasligi oqibatida unga nisbatan ulush (aksiya)ni sotishi va shu kabi boshqa asoslarda amalga oshiriladi. Bu esa korporativ shartnomani an'anaviy fuqarolik-huquqiy shartnoma konstruksiyasidan farqli ravishda birgalikda faoliyati, ya'ni sherik-sherik konstruksiyasiga asoslanishini ko'rsatadi.

XULOSA

“Korporativ shartnomani fuqarolik-huquqiy tartibga solish” mavzusidagi tadqiqotda quyidagi ilmiy-nazariy, qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga oid xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1.1. 1) korporativ shartnoma – korporativ turdagi yuridik shaxs ishtirokchilari o‘rtasida qonun va ta’sis hujjatlariga zid bo‘lmagan maqsadlarga erishish uchun korporativ vakolatlarni amalga oshirish yo‘llarini belgilash orqali korporativ huquqlarni realizatsiya qilish to‘g‘risidagi kelishuvdir; 2) korporativ shartnomaning predmeti shartnoma taraflarining kelishuvi bilan belgilanadigan hamda qonun va ta’sis hujjatlariga zid bo‘lmagan usullar bilan amalga oshiriladigan korporativ turdagi yuridik shaxs ishtirokchilarining korporativ huquqlari tashkil qiladi 3) korporativ shartnomaning mazmuni qonun normalariga va jamiyatning ta’sis hujjatlari qoidalariga zid bo‘lmasligi kerak; 4) korporativ shartnomaning mazmuni faqat uchinchi shaxslar uchun maxfiy bo‘lishi lozim; 5) korporativ shartnoma taraflari jamiyat va uning shartnoma tarafi hisoblanmagan ishtirokchilari (aksiyadorlari)ni korporativ shartnoma tuzilganligi fakti, shuningdek, korporativ shartnoma taraflariga murojaat qilinganida shartnoma mazmuni to‘g‘risida xabardor qilishi kabi holatlar qonunchilik darajasida belgilanishi lozim.

1.2. Dastlab ovoting agreement, pooling agreement (aksiyadorlarning aksiyalarni tasarruf etish huquqini cheklash to‘g‘risidagi kelishuvi), shareholders agreement (korporativ boshqaruv tartibi to‘g‘risidagi aksiyadorlik kelishuvi) va voting trust agreement (ovoz beruvchi trastni ta’sis etish haqidagi kelishuv) sifatida vujudga kelgan korporativ shartnoma, bugungi kunda anglo-amerika huquqida ikki tomonlama xarakter kasb etadi. Dissertatsiyada korporativ shartnoma “jamiyat va ishtirokchilar (aksiyadorlar) o‘rtasidagi” hamda “ishtirokchilarning o‘zaro” munosabatlarini tartibga solishiga oid doktrina asosida nazariy takliflar ishlab chiqilgan hamda korporativ shartnomaning huquqiy tabiati va mazmuniga oid nazariyalar asosida ushbu shartnoma majburiyat-huquqiy tabiatga emas, balki korporativ-huquqiy tabiatga egaligi asoslantirildi.

1.3. Korporativ munosabatlarda ishtirokchilarning o‘z ulushi (aksiyalari)ni realizatsiya qilishda drag along rights (“ilgari surish” huquqi) va tag along rights (“ergashma” huquq) qoidalarini qo‘llashning istiqbollari va ijobiy jihatlarini milliy qonunchilikda ifodalanishi yuzasidan takliflar asoslangan.

1.4. Xo‘jalik jamiyati ishtirokchilariga tegishli aksiyalarni sotish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar doktrinalarida keng qo‘llanadigan demand rights (aksiyani sotishni talab qilish huquqi) va piggy-back rights (co-sale agreements, barcha aksiyalarni sotish olishni talab qilish huquqi)ni qo‘llash orqali minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tavsiyalar asoslantirilgan.

1.5. Korporativ shartnomalarda opsion turlari sifatida amal qiladigan put option (o‘ziga tegishli aksiyalarni shartnomaning boshqa tarafi sotib olishini talab qilish huquqi) va call option (shartnomaning bir tarafiga tegishli aksiyani boshqa

taraf tomonidan sotilishini talab qilish huquqi)ga oid normalarni milliy qonunchilikda ifodalash zarurati asoslangan;

1.6. Bugungi kunda ko‘pincha “Dead-lock” deb nomlangan hodisa natijasida hatto yirik kompaniyalarning faoliyati nomuayyan muddatga to‘xtab qoladigan holatlar mavjud. “Dead-lock”, bu – kompaniyaning ishini falaj qiladigan, mojaro kelib chiqadigan boshi berk vaziyatdir. Buning sababi shundaki, biznes sheriklari qiyin vaziyatda harakat qilish tartibi va umumiy biznesdan chiqish variantlari to‘g‘risida kelisha olmaydilar. Korporativ boshqaruvdagi “dead-lock” korporativ huquq uchun juda keng tarqalgan hodisa bo‘lib, mojaroni oldinroq anglash va uni qanday yengib o‘tish haqida kelishib olish osonroq bo‘lsa-da, ko‘pincha uni asosan korporativ shartnoma tufayli hal qilish mumkin bo‘ladi. Aynan shu shartnomada “dead-lock”dan chiqishning bir qator usullari belgilanishi mumkin. Bu odatda bir taraf aksiyalarini boshqa taraf talabi asosida qaytarib sotib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

1.7. Aksiyadorlar shartnomasini tuzish – kompaniyaning o‘z aksiyadorlari va investorlariga nisbatan yashirin niyatlari yo‘qligini isbotlash uchun imkoniyatdir. Ovoz berish huquqi va majburiyatlari kabi jihatlar odatda aksiyadorlar shartnomasida muhokama qilinadi. Biroq ko‘plab mamlakatlarda aksiyadorlar shartnomasi shartnoma huquqi tamoyillari bilan tartibga solinishiga qaramay, ushbu hujjat kompaniyaning korporativ qadriyatlarini va standartlarini hisobga olgan holda takomillashtirilishi yoki tuzatilishi mumkin. Agar bunday imkoniyat aksiyadorlar shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa, manfaatdor shaxs direktorlar kengashi a‘zolaridan birining vazifalarini bajarishi mumkin. Aynan shu jihatlar korporativ shartnomaning korporativ-huquqiy tabiatini ko‘rsatadi.

1.8. Dissertatsiyada korporativ tanglik, “boshi berk vaziyat”dan chiqishning xorijiy mamlakatlarda qo‘llanadigan bir qator usullari: “texascha otishma”, “rus ruletkasi”, “gollandcha auksion” kabi turlari o‘rganilib, bu usullarni korporativ shartnomada belgilash yo‘li bilan qo‘llanishi aniqlandi. Mazkur holatda korporativ shartnomada boshi berk vaziyatdan chiqishning qaysi usulini tanlash taraflarning kelishuvi bilan oldindan belgilab qo‘yilishi lozim bo‘ladi. Milliy fuqarolik va korporativ huquq doktrinalarida ham korporativ tanglik vaziyatidan chiqishda qo‘llanadigan usullar korporativ shartnomada aks etishi lozimligi o‘z ifodasini topishi maqsadga muvofiqdir.

1.9. Jamiyat ishtirokchi (aksiyador)lari mojaritar va minoritar bo‘lishi mumkin va korporativ shartnoma minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishga yordam beradi. Minoritar aksiyador – kompaniyaning kichik qismiga (yarmidan kamiga) egalik qiluvchi jismoniy shaxs yoki tashkilot hisoblanadi. Shu sababli turli munozaralar va yig‘ilishlarda bunday aksiyadorlarning ovozlari ahamiyatli emas va ular o‘z g‘oyalari va takliflarini himoya qila olmaydilar. Korporativ shartnoma minoritar aksiyadorlarning huquqlarini belgilaydi va ularga tanlangan kompaniya bilan hamkorlikdan nimani kutishlari mumkinligini tushunishga yordam beradi. Shu sababli korporativ shartnomaning mazmunida minoritar aksiyadorlarning huquqlari kafolatini ta‘minlaydigan qoidalar muhim shart sifatida ifodalanishi lozim.

1.10. Korporativ shartnomaning asosiy afzalliklaridan biri, bu – aksiyadorlar va kompaniya vakillari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish imkoniyatidir. Bunday shartnomalar ular investitsiya qilmoqchi bo‘lgan kompaniyalar aksiyadorlarining huquqlarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Bundan tashqari, allaqachon o‘rnatilgan qoidalar, qadriyatlar va maqsadlarga ega kompaniyalarga qo‘shiladigan ko‘plab aksiyadorlar mavjud. Korporativ shartnoma aksiyadorlarga kompaniyaning huquqlari va normalari to‘g‘risida zarur ma‘lumotlarni taqdim etadi.

1.11. Investorlar va ular olgan variantlarga qiziqqan korporativ shartnomaning barcha taraflari bunday hujjatda javob topishlari va maxfiylik, nizolarni hal qilish va shartnomani uzaytirish kabi kafolatlarni olishlari mumkin. Maxfiylik korporativ shartnomaning muhim jihati hisoblanadi. Shartnomada taraflar to‘g‘risida batafsil ma‘lumot berilgan bo‘lsa-da, ushbu turdagi hujjat ochiq emas va faqat shartnoma taraflari uchun mavjud bo‘lib qoladi. Korporativ shartnomalar kompaniyaning tarkibi va har bir xodimning roli, kompaniya standartlariga javob bermaydigan direktorlarni yoki boshqa ishtirokchilarni tayinlash yoki ishdan bo‘shatish imkoniyati, shuningdek, kompaniyada ma‘lum (muqarrar) o‘zgarishlar yuz berganda hisobga olinishi kerak bo‘lgan cheklovlar kabi jihatlarni tartibga solishga yordam beradi.

1.12. Qit‘a-yevropa huquqiy tizimi amal qiladigan mamlakatlarda korporativ shartnoma qoidalari korporatsiyaga taalluqli hisoblanmaydi. Bundan farqli ravishda ingliz-amerika huquq oilasida korporativ shartnoma bevosita ustavda belgilangan qoidalarni o‘zgartirishi, kompaniyaning ta‘sis hujjatlarini yangilashi va hattoki boshqaruvga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Fikrimizcha, milliy qonunchilikda korporativ shartnomani ifodalashda aralash modelni ifodalash, ya‘ni qonunchilik va jamiyat ustavida nazarda tutilgan hollardagi korporativ shartnoma bilan jamiyatning boshqaruviga oid masalalar yuzasidan ovoz berish bo‘yicha umumiy kelishuvni nazarda tutish mumkin.

